

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

MOLIYAVIY OMMABOPLIKNI OSHIRISHDA MOLIYAVIY SAVODXONLIK

*Umarova Lola Erkinovna
TDIU, Bank ishi kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya: Moliyaviy ommaboplilikni o'rganish aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ko'rsatadi, moliyaviy ommaboplilikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida o'z o'rniaga ega.

Kalit so'zlar: moliyaviy ommaboplilik, moliyaviy xizmat, moliyaviy xizmatlar ommabopligi, bank xizmatlari, moliyaviy savodxonlik.

Iqtisodiyotning barqaror va mutanosib rivojlanishi, aholi turmush darajasi va farovonligining oshishi ko'p jihatdan fuqarolarning iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ongli ravishda munosabatda bo'lishi, iqtisodiy tafakkur va ko'nikmalarning rivojlanishiga bog'liq. Chunki, fuqarolar qanchalik yuqori iqtisodiy faoliyat va moliyaviy savodxonlikka ega bo'lsa, ularning iqtisodiy faoliyati, hayotning turli jabhalarida qabul qilayotgan qarorlari shu darajada samarali bo'ladi. Ayniqsa, moliyaviy savodxonlik mamlakatdagi ishbilarmonlik muhitining rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining kengayishiga qulay imkoniyat yaratadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida bozor munosabatlarining shakllanish jarayonlari yanada jadalroq tus olmoqda, iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishda bozor mexanizmlaridan foydalanish salmog'i sezilarli ravishda ortib bormoqda. Iqtisodiy resurslardan foydalanish, yangi ish o'rinalarini yaratish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi muhim jihatlarga ko'proq moddiy manfaatdorlik, rag'batlantirish, iqtisodiy dastaklarni ishga tushirish orqali yondoshilmoqda.

Bularning barchasi esa iqtisodiyotimizning demokratik bozor tamoyillari asosida qayta tarkib topishiga zamin bo'lmoqda.

Biroq, shu o'rinda ta'kidlash lozimki, iqtisodiyotda samarali va demokratik bozor tamoyillarini to'liq tarkib topishi fuqarolarning iqtisodiy bilim va malakalari, ko'nikmalari darajasiga, ularning iqtisodiy madaniyatiga ham bog'liq. Iqtisodiy madaniyatning etarli darajada shakllanishi va samarali amal qilishi esa har bir shaxsning moliyaviy savodxonlik darajasini taqozo etadi. Shunga ko'ra, hozirda jahonning aksariyat mamlakatlarida aholining moliyaviy savodxonligini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning mamlakatimizda ham aholi moliyaviy savodxonligini ta'minlash va oshirish muhim bo'lib, bu boradagi tizimli chora-tadbirlarni belgilash avvalo mazkur masalaning iqtisodiy mazmuni va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rnini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

"Moliyaviy savodxonlik – bu inson moliyaviy xulq-atvori sohasidagi uning farovonligini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga olib keluvchi bilim,

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLO TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

ko'nikma va qadriyatlar majmui; hayotdagi voqealar va iqtisodiy shart-sharoitlardagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda qisqa muddatli qarorlar va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish orqali shaxsiy moliyani boshqarishdagi qobiliyat va qat'iylikni, asosiy moliyaviy tushunchalarni anglab etishni ifodalovchi darajadir.

Moliyaviy savodxonlik – o'z mablag'ini boshqarish va uni ko'paytirish mahorati. U moliyaviy bozorning o'ziga xosliklarini bilish, bozor ishtirokchilari tomonidan taklif etilayotgan mahsulot va xizmatlardan xabardor bo'lish hamda shu asosda qabul qilingan qaror mas'uliyatini zimmasiga olish degani hamdir.

Moliyaviy savodxonlik tushunchasi juda keng hisoblanadi. U aholining kundalik hayotdagi oddiy iqtisodiy voqealari (masalan, oziq-ovqat va uy-ro'zg'or buyumlarini xarid qilish, turli resurslar (elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik suvi) va kommunal xizmatlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni amalga oshirish, xususiy yoki davlat sektorida mehnatda band bo'lish, ish haqi yoki nafaqa olish va h.k.)dan tortib nisbatan murakkab jarayonlar (masalan, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, tijorat banklari kreditlaridan foydalananish, qimmatli qog'ozlar sotib olish va boshqalar)da ishtirok etishigacha bo'lgan jihatlarni qamrab oladi.

Mamlakatda aholi moliyaviy savodxonligi darajasining yuqori bo'lishi moliyaviy xizmatlar sohasining ham jadal rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish orqali aholining bu boradagi bilimlarini mustahkamlash va kichik biznes sub'ektlarining bunday xizmatlarga bo'lgan talabini oshirish imkonini paydo bo'ladi. Qolaversa, bugungi kunda mamlakatimizda ishsizlik darajasining yuqori bo'lishi sabablaridan biri aholining aksariyat qismi tadbirkorlik sohasida, jumladan, ajratilayotgan kredit mablag'larini o'zlashtirish hamda oddiy moliya hisobotlarini yuritish bo'yicha etarlicha bilim va ko'nikmalarga ega emasligi orqali ham izohlanadi.

Biroq, iqtisodiy ta'limning zamонави тизими таркиб топган мamlakatlarda ham fuqarolarning ahamiyatli qismi shaxsiy moliya masalalariga kuchsiz yo'naltirilgan bo'lishi mumkin.

Eng avvalo ta'kidlash kerakki, moliyaviy savodxonlikning asosiy, markaziy bo'g'inida inson turadi. Chunki, mazkur jarayonni amalga oshirishdan asosiy maqsad ham uning farovonligi va hayot sifatini oshirish hisoblanadi. Biroq buning uchun u o'z ixtiyoridagi iqtisodiy resurslardan, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealari va hodisalar, vujudga kelishi mumkin bo'lgan shart-sharoitlardan o'zi hamda jamiyat uchun manfaatli va samarali asosda foydalananish borasida etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim. Shuningdek, jamiyatda tarkib topgan qadriyatlar tizimi ham ushbu maqsadlar bilan o'zaro muvofiq kelishi zarur. Eng muhimmi, har bir shaxs qayd etib o'tilgan vosita va dastaklardan foydalangan holda qisqa muddatli qarorlar qabul qilish hamda uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish jarayonini to'g'ri tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Shu o'rinda, aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, alohida shaxsning moliya borasidagi

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

bilim va ko'nikmalar pirovardida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Aholining moliyaviy jihatdan savodsizligi nafaqat shaxsiy farovonlikka, balki butun moliyaviy sohaga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, fuqarolarning o'z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto'g'ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo'ladi, savodsizlik moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin.

Aholi moliyaviy savodxonligining mazmuni va ahamiyatini ochib berishda uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va muayyan tizimga solish muhim o'rinn tutadi.

Aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalasini uning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarni aniqlamasdan turib hal etib bo'lmaydi. Shunga ko'ra u quyidagi omillarni ajratib ko'rsatadi:

- 1) mamlakatdagi iqtisodiy ta'lim darjasи;
- 2) moliyaviy infratuzilmaning mavjudligи va rivojlanganlik darjasи;
- 3) aholining iqtisodiyotga ishonchi darjasи;
- 4) moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari.

Aholi moliyaviy savodxonligi tushunchasi umumlashtirilgan mazmun kasb etib, uni moliyaviy savodxonlik darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning yuqorida keltirilgan tasnifi to'liq ifodalay olmaydi. Uning mazmun-mohiyatiga chuqurroq kirib borish o'z navbatida mazkur tushunchaning turli (masalan, alohida shaxs, muayyan hudud aholisi, mamlakat aholisi) darajalarini tabaqa lashtirishni taqozo etadi.

Moliyaviy savodxonlik bu – bank-moliya sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish orqali biz tadbirkorlar tomonidan samarali moliyaviy qarorlarni qabul qilishimizda muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, mamlakatimiz Prezidentining 2018 yil 23 martdagи "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3620-sonli qaroriga asosan bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish va innovatsion rivojlanishning tendentsiyalarini inobatga olgan holda moliyaviy ochiqlik darajasini oshirish, moliyaviy xizmatlardan foydalanish va aholining moliya sohasida bilimlarini oshirish maqsadida targ'ibot ishlarini tashkillashtirish vazifasi belgilangan.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirishdan asosiy maqsad – moliyaviy xizmatlarni ommalashtirish natijasida aholi va bank xodimlarining moliyaviy bilim darajasini yanada oshirish hamda tadbirkorlik sub'ektlari o'rtaida moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini oshirishdan iboratdir.

Aholining moliyaviy bilim darajasini doimiy oshirib borish, moliya sohasida asosiy tushunchalarga ega bo'lish – keljakda ularning bank mijoziga aylanishiga zamin yaratadi.

Moliyaviy savodxonlik aholi va banklar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlovchi muhim vositadir.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining aksariyat rahbarlari moliyaviy bilimlariga emas, balki his-tuyg'ulariga asoslanib, iqtisodiy qarorlar qabul qiladilar. Tadbirkorlar va aholi moliyaviy savodxonligining etarli emasligi mablag'lardan foydalanishga to'sqinlik qiladi, bank mahsulotlari bozori rivojlanishiga imkon bermaydi.

Moliyaviy ommaboplak nafaqat aholi farovonligi, balki davlat taraqqiyotida ham muhim o'rinni egallaydi.

Xulosa qilib aytganda aholi moliyaviy savodxonligi – mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, yuqori o'sish sur'atlari, faol tadbirkorlik hamda to'liq bandlik darajasiga erishishning muhim sharti.

Aholi moliyaviy savodxonligi jamiyatdagi har bir shaxsning iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikmalar, qadriyatlarni etarli darajada egallashi hamda o'z farovonligini ta'minlash imkonini beruvchi iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ularga asoslangan holda to'g'ri yondashuvini ta'minlovchi sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Aholi moliyaviy savodxonligi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, avvalo shaxs, u istiqomat qilayotgan hudud, qolaversa, butun milliy iqtisodiyotda barqarorlik va farovonlik darajasi shu qadar yuqori bo'ladi.

Aholi moliyaviy savodxonligi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar turli-tuman bo'lib, ularning har biriga alohida e'tibor qaratish orqali tegishli chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi mazkur ko'rsatkichning samaradorligini ta'minlaydi.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi aholi moliyaviy savodxonlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Biroq, bu rivojlangan mamlakatlarda mazkur sohada hech qanday muammo mavjud emas, degan ma'noni anglatmaydi. Shunga ko'ra, rivojlanganlik darajasidan qat'iy nazar, har bir mamlakat o'z iqtisodiyoti hamda aholi mentaliteti xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aholi moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish bo'yicha muntazam va tizimli chora-tadbirlarni ishlab chiqishi muhim hisoblanadi.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish maqsadi – kam daromadli oilalar iste'mol xarajatlarini amalga oshirishda, shaxsiy jamg'armalar va investitsiyalar (molivaviy va moddiy aktivlarga, hamda "inson kapitali" ya'ni ta'lim va sog'liqni saqlashga), kredit olish va qarzlarni boshqarish sohalarida bilim va ko'nikmalarini oshirishdir. Moliyaviy savodxonlik benefitsiarlarga o'z kelajaklarini to'g'ri rejalashtirish va mablag'larini asrashda yordam beradi va shu bilan ularning moddiy turmush darajasi yaxshilanishi imkoniyatini oshiradi hamda molivaviy xizmatlar bozoridagi ularning ishtiroti jadallahishiga ta'sir etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Toymuxamedov I., Umarov Z., Xusainov G. Naqd pulsiz hisob-kitoblar va to'lov tizimi. O'quv qo'llanma. – 2018.
2. Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: "Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi" 2021, 612 b.

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

3. Umarov Z.A. Yangi bank xizmatlari, ularni rivojlantirish Bozor, pul va kredit jurlali №1 2019 у.
4. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
5. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
6. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
7. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
8. Косимович, Я. У. (2024). Ташқи савдо фаолиятида мақбул ечимни топиш масалаларини таҳлили. *World scientific research journal*, 26(2), 199–205.
9. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
10. Choriev I.X. Auditorlik faoliyatida tahliliy amallarni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: «Iqtisod-moliya»nashriyoti, 2021, - 21-26 b.
11. Кличев, Б. (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Направления развития благоприятной бизнес-среды в условиях цифровизации экономики, 1(01), 170–173. <https://doi.org/10.47689/TSUE2022-pp170-173>
12. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Konferensiya to‘plami. Termiz, O‘zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>
13. Yakupbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. ., Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA’LIM, MADANIYAT VA INNOVATSİYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
14. Қличев Баҳтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда маҳсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7),

BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
15. Abdullayev, A., & Djamatov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
16. Худоёров О.О. (2023). Банк тизимини ракамлаштириш шароитида ракамли банк технологияларини жорий қилиш . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 13(7), 99–107. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2788>
17. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o ‘rni.
18. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
19. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
20. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>
21. Kholdorov Sardor Umarovich. (2024). LIQUIDITY RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR: CHALLENGES, STRATEGIES AND IMPLICATIONS. *World Scientific Research Journal*, 26(3), 122–131. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3255>